

**SHAXSIY TOMORQA XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHDA XORIJY
DAVLATLARDAGI TAJRIBALARINING TAHLILI.****Adizov Shuhrat Bafoyevich***Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti***Ergasheva Sayliya Erkin qizi****Olimova Mexrangiz Farxod qizi***Talaba***Sirocheva Sharofatposhsho Akmal qizi***Talaba***Ahmadov San'atjon Olimovich***"O'zdavyerloyiha" DILI Buxvilyerloyiha bo'linmasi 1-toifali muhandisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsiy tomorqa xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish masalasi yoritilib, dunyoning turli davlatlaridagi ilg'or tajribalar tahlil qilingan. Xususan, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Niderlandiya va AQSh kabi mamlakatlarda aholining kichik yer maydonlaridan foydalangan holda o'z ehtiyojini qondirish, ortiqcha mahsulotni bozorda sotish, va bandlikni ta'minlashdagi yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bu mamlakatlarda tomorqa xo'jaliklariga ko'rsatiladigan texnik, moliyaviy va axborotiy yordam shakllari o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida bu tajribalarni moslashtirish imkoniyatlari hamda tomorqa yerlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiy tomorqa xo'jaligi, xalqaro tajriba, kichik yer maydonlari, oziq-ovqat xavfsizligi, tomorqa yerlaridan foydalanish, bandlik, xorijiy amaliyot, agrotexnologiya, iqtisodiy samaradorlik.

KIRISH

XX asrning boshlanganidan to shu kungacha dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari bir qancha tarixiy jarayonlarga guvoh bo'ldi. Ibtidoiy jamoatuzumi davridan boshlab oilani oziq ovqatga bo'lган ehtiyojini qondirish maqsadida qabila bo'lib yashovchilar orasida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi erkaklar soni ko'p bo'lgan. Tarixiy manbaalardan ko'rinish turibdiki, ular o'sha davrdan boshlab iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lgan "barter" usulini amalga oshirganlar. Ya'ni, "dehqon"lar o'zlari yetishtirgan dehqonchilik mahsulotlarini "chorvador"larning mahsulotiga almashtirganlar yoki o'z ehtiyojlariga uchun zarur bo'lgan biror bir maxsulot evaziga bergenlar. Hozirda esa bu jarayon biroz ommalashgan ko'rinishda bo'lib "realizatsiya" nomini olgan. Yaniki ular yetishtirgan mahsulotlartini erkin holatda bozorda sota oladi va olgan daromadiga egalik qiladi.

Qozog'istonda dehqon yoki fermer xo'jaligi ixtiyoriy asosda tashkil etiladi va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazgan paytdan boshlab, Qozog'iston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan hollarda yakka tartibdagi

tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanadi. Birgalikda tadbirkorlikka asoslangan dehqon yoki fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazishda davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma dehqon yoki fermer xo'jaligi boshlig'iga beriladi. Guvohlikka davlat daromad organining tegishli hududiy bo'linmasi rahbari tomonidan tasdiqlangan dehqon yoki fermer xo'jaligi a'zolari ro'yxati ilova qilinadi.

Rossiya tomorqa xo'jaligumumiylar mulkka ega bo'lgan va birgalikda ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy faoliyatni (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishslash, saqlash, tashish va sotish) amalga oshiradigan qarindoshlik va mulk bilan bog'liq fuqarolarning birlashmasidir. Ularning shaxsiy mehnat ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Rossiya qonunlariga binoan qishloq xo'jaligi mol-mulkka ega bo'lgan va ishlab chiqarish yoki boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan fuqarolarning birlashmasidir. Dehqon-fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng, uning boshlig'i yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yurita boshlaydi.

Qирғизистонда томорقا xo'jaligi- мақомга ега bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt yuridik shaxs yoki o'z faoliyatini amalga oshirmsadan faoliyati tashkil etilgan yuridik shaxsning tashkil etilishi asosan, bir oila a'zolari, qarindoshlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi boshqa shaxslarning shaxsiy ishlarida uer uchastkasiga va boshqalarga asoslangan mahsulotlar qishloq xo'jaligi a'zolariga tegishli bo'lgan mol-mulk mulk yoki foydalanish uchun olingan ijara yer uchastkasidir.

Tojikiston Respublikasining qonunlariga muvofiq 18 yoshga to'lган muomalaga layoqatli fuqarolari dehqon xo'jaligini tashkil etish huquqiga egadirlar. Dehqon xo'jaligiga egalik qilish quyidagi talablarni hisobga olgan holda belgilanadi:

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligiga nisbatan-har bir xo'jalik a'zosining umumiy foydalanuvdagagi yer uchastkasida yer uchastkasini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarda aks ettirish va bir guruhi jismoniy shaxslar tomonidan ularning a'zolarining birgalikdagi faoliyati, huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan.

Eron va Osiyoning bir qator davlatlarida mahalla oqsoqollari yoki katta yer egalarini "dehqonlar" deb atashgan. 11-12 asrlarga kelib, dehqonlar qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tizimining eng asosiy kuchga va aholining asosiy ijtimoiy qatlamiciga aylanib borgan.

"Tomorqa xo'jaligining asosiy vazifasi – qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko'paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga hissa qo'shish, o'zi joylashgan hududning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish kabi bir qator vazifalarni yechishda ham dehqon xo'jaliklari o'z hissalarini qo'shishlari lozim". Bu xususda S.N.Usmonov, Yu.T.Dodobaev, A.O'lmasov shunday yozishadi: "Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Yaponiya,

Fransiya, Italiya va hok.) dehqon xo'jaliklari umuman, dehqonlar soni keskin qisqardi, fermer xo'jaliklarining o'sishi bilan birga kooperatsiyalash yuzaga keldi. Hozir rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining asosiy qismini tashkil etadigan dehqonlarning xo'jalik ukladi rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiyligini ta'sirida yanada murakkablashib bormoqda. Sobiq Sovet Ittifoqida, Sharqiy Yevropa va Osiyodagi bir qator mamlakatlarda majburiy ravishda amalga oshirilgan dehqon xo'jaliklarini kooperatsiyalash (jamoa xo'jaliklariga aylantirish) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini juda pasaytirib, dehqonlarga ham, jamiyatga ham zarar keltirdi".

A.Rasskazov esa: "Rossiyada shaxsiy yordamchi xo'jaliklar rivojiga kollektivlashtirish katta talofat keltirgan, lekin 30-yillardagi ocharchilikdan keyin har bir oila o'z shaxsiy xo'jaligiga ega bo'lish zaruriyati paydo bo'ldi", - deya o'z ilmiy asarlarida ko'rsatib o'tgan.

Yaponiya sanoati, qishloq xo'jaligi, umuman har sohada yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. YaMM miqdoriga ko'ra ham salmoqli o'rinni egallaydi. Mamlakat yer maydoni 372 ming km², aholisi 127 mln. kishidan ko'proqni tashkil etadi. 1950 yillarda bu yerda urushdan keyin "iqtisodiyotni oyoqqa turg'azish" uchun bir qancha iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Eng birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi sohasiga e'tibor qaratilib, yer maydonlarini egallab olgan "feodal" mulkdorlardan tender asosida yerlar fermer va dehqonlarga berildi. Fermer va dehqonlar sinfi shu davrlarda Yaponianing agrar islohotlari qatnashchisi bo'ldi. Faqatgina 1970-80 yillarda Yaponianing hayotiga "yapon iqtisodiyoti rivojining yangi bosqichi" kirib keldi. Bu paytga kelib Yaponiya eng rivoj topgan sanoat- industrial mamlakat sifatida tanildi. Shunda ham qishloq xo'jaligiga e'tibor berilib, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yuqori saviyada amalga oshirildi.

Quyida Yaponianing dehqon, fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Yaponiya don yig'imi bo'yicha dunyodagi mamlakatlar ichida 20-o'rinda turadi. Yiliga 12,7 mln tonna don yetishtirib, shundan 40,2 % i dehqonlar, qolgani esa fermer va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiya qishloq xo'jaligida yiliga 11,9 mln tonna guruch yetishtiriladi, shundan 6-8 % dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Yaponiya dunyoda kartoshka yetishtiruvchi, eksport qiluvchi 32 mamlakat ichida 16-o'rinda turadi, lekin yetishtirayotgan 3,4 mln tonna kartoshkaning aksariyat qismini (68%) o'z aholisi iste'moli uchun yetishtiradi. Kartoshkaning 49 % ini dehqonlar yetishtirib beradi. Qolgani esa fermerlar zimmasiga to'g'ri keladi.

Sabzavotlar ishlab chiqarish va yig'im – terimi bo'yicha Yaponiya dunyoda 7-o'rinda turadi. 16 mln tonna sabzavotdan 62 % ini tomorqa xo'jaligi yetishtirib beradi.

Ayniqsa, meva yetishtirishda Yaponiya ko'proq dehqon xo'jaliklariga tayanadi. Masalan, 2013-2016 yillar davomida Yaponiya 100 mamlakat ichida 23-o'rinda turadi va yiliga 5,2 tonna meva yig'adi. Bu yig'imning 80,2 % i dehqonlar, qolgani esa qishloq xo'jaligining boshqa korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiyadagi yuqori sur'atda

rivojlangan sanoat, ayniqsa, mashinasozlik sanoati, qishloq xo'jaligida minitexnologiyalar, hatto robotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa dehqon xo'jaliklarida yollanma mehnatdan ko'ra ko'proq avtomatikadan foydalilanadi, degan xulosani beradi. Yaponiyaning eng ko'p tarqalgantomorqa xo'jaligi – bu shaftoli, uzum, qulupnay yetishtirishga ixtisoslashgan dehqon xo'jaligidir. Davlat tomonidan ularni qo'llab- quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari ko'rildi, yuqori narxlarda dehqonlardan mahsulotini ulgurji narxda sotib olinadi.

Yuqori daromadli dehqon xo'jaliklari shaftoli, uzum yetishtirish uchun qo'shimcha yerlar sotib olish imkoniga ega. Dehqon xo'jaliklari o'zlariga yaqin bo'lgan shahar bozorlari va supermarketlarini yetishtirgan mahsulot bilan ta'minlaydilar. Ular shartnoma asosida ishlaydi. Natijada aholining mevaga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, aholi xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi har bir oila yiliga o'rtacha 21 ming dollardan 32 ming dollargacha daromad olishga erishadilar. Yaponiyada dehqon xo'jaliklari yetishtirgan mevalarning isrofgarchiligiga yo'l qo'yilmaydi, chunki ular eng zamonaviy qishloq xo'jaligi innovatsiyalari bilan ta'minlangan. Meva-sabzavotlar yuqori quvvatlari muzlatgichlarda saqlanadi. Tomorqa xo'jaligiva tomorqa yer maydonlari faqat mahsulot yetishtiradi, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi firmalar, kompaniyalar ulgurji narxda uning mahsulotini sotib oladi, navlarga ajratadi. Oliy navlilar ulgurji bozorlarga, past navlilari qayta ishlovchi firmalarga sotiladi, hatto supermarketlar ham oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydi va olingan daromadning bir qismi dehqon xo'jaligiga ham to'g'ri keladi. Ularga axborot-konsalting xizmati ko'rsatiladi, yetishtirilayotgan va yetishtirmoqchi bo'lgan mahsulotlar haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Dunyoning eng iqtisodiy rivojlangan mamlakatlaridan biri bu – AQShdir. Bu davlat dunyoda o'zini-o'zi xom ashyo resurslari bilan ta'minlovchi eng yirik davlatlardan biri. Dunyodagi transmilliy korporatsiyalardan eng mashhur 10 tasidan 8 tasi AQShniki. Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini kapitallashtirish ustidan monopoliyalar o'rnatildi. 1948-1952 yillarda qishloq xo'jaligini moliyalashga ko'maklashuvchi yirik konsernlar tashkil etilib, katta hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini fermerlardan sotib olishgan.

AQShda qishloq xo'jaligi yuksak darajadagi bozor munosabatlarining rivoji, mahsulot ishlab chiqarishdagi tovarlilik darjasini bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligi asosan fermer, dehqon va tomorqa egalari mehnati bilan, yollanma mehnat, yuqori texnika-texnologiya, kimyo va fanning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda yaxshi natijalargaerishmoqda.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida eng ko'p qo'llaniladigan mineral o'g'itlardan azotli o'g'itlar – 112,5 mln. t, fosforli 39,9 mln.t, kaliyli – 46,3 mln tonna – jami 198,7 mln. t. o'g'itlarni qo'llash bo'yicha AQSh dunyoda Xitoydan keyingi 2-o'rinda turadi. AQShda 90-yillarga kelib, n deyarli ekologik toza, qishloq xo'jaligiga yaroqli maydonlar qolmagan. Hozirgi kunda AQSh da yerkarni o'g'itlardan zararsizlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Agricultural Economics Department University of Wisconsin ilmiy tadqiqot markazida olib borilgan ilmiy ishlarda olimlar

dehqon xo'jaliklarini istiqbolda ko'paytirish lozimligini aytadilar. Chunki ularning fikricha, dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish darajasi (zararsizlantirish) boshqa qishloq xo'jaligi korxonalaridan ko'ra yuqoriq natijani bermoqda.

AQSh 2012-2016 yillarda 328-440 mln tonna don yetishtirib, dunyoda Xitoydan keyingi 2- o'rinda turadi, shundan 53,3 – 60 mln tonnasi bug'doya to'g'ri keladi. Donli ekinlar yetishtirishda AQSh asosan fermer xo'jaligiga tayanadi. Tomorqa xo'jaligiu yerda «Peasant» yoki «farmer household», tomorqa yeri esa «homestead» deb yuritiladi.

Dehqon xo'jaliklari yiliga 12 mln tonna apelsin (Braziliyadan keyin dunyoda 2- o'rinda turadi), 2,5 mln tonna greypfrut (jahonda birinchi o'rinda turadi), yiliga 820-900 ming tonnagacha qulupnay (uni yetishtirish bo'yicha ham jahonda yetakchi o'rinda turadi), yiliga 37-45 ming tonnagacha malina (dunyoda 4-o'rinda turadi) va hokazolar ishlab chiqarishadi (1.2.1-jadval).

Shuningdek, AQShda bodom yetishtirish ham yuqori sur'atlar bilan o'smoqda. Yiliga 485 ming tonna bodom teriladi va buni AQShdagagi bodomzorlar egalari – haqiqiy dehqonlar amalga oshiradilar. Har yili qishloq xo'jaligi AQSh iqtisodiyotiga 60-65 million dollargacha foyda keltiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va eksport qilishda dunyoda yetakchi rol o'ynovchi davlat bu – Germaniyadir. Davlatning fermer vadehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi "yashil reja" deb nomlanuvchi moliyaviy siyosati natijasida mamlakatning 85 % oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qishloq xo'jalik kooperativlari qondiradi. Lekin o'sha qishloq xo'jalik kooperativlari negizida dehqon xo'jaliklari hamda shaxsiy tomorqa yer egalari faoliyat yuritadilar.

1- jadval. AQShda tomorqa xo'jaligi yetishtiradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularning ulushi

Nº	Qishloq xo'jaligi mahsulotlariturlari	O'lchov birligi	2012	2014	2018	2018 y 2012 y ga nisb., %	Dehqon xo'jaligi ulushi, %	Boshqa qishloqxo'jaligi korxonalari, %da
1	Bug'doy	mln.tonna	51,2	56,5	66,2	129,2	0,7-1,2	99,3-98,8
2	Guruch	mln.tonna	9,4	10,7	12,8	136,2	2,2-3	97,8-97
3	Makkajo'xori	mln.tonna	214,5	235,6	264,6	123,3	30-35	65-70
4	Kartoshka	mln.tonna	26,7	29,5	30,2	113,1	28-33	67-72
5	Dukkaklilar	mln.tonna	1,8	2,5	3,5	194,4	70-72	28-30
6	Qand lavlagi	ming tonna	34,5	36,0	38,5	111,6	70-75	25-30
7	Sabzavotlar	mln.tonna	46,2	48,8	54,6	118	80-85	15-20
8	Karam	mln.tonna	3,6	4,2	4,8	133	87-87,8	12,2-13
9	Pomidor	mln.tonna	18,3	20,2	24,0	131	78-79	21-22
10	Apelsin	mln.tonna	12,9	14,5	16,8	130,2	88-89	11-12
11	Greypfrut	mln.tonna	3,5	4,7	5,2	148,5	87,5-88,5	11,5-12,5

12	Qulupnay	mln.tonna	826	908,6	980	118,6	100	0
----	----------	-----------	-----	-------	-----	-------	-----	---

Germaniya qishloq xo'jaligi uchun alohida mablag' yo'naltiriladi, ayniqsa mikrokreditlar, imtiyozli kreditlar, yuqori sifatlari qishloq xo'jalik mahsuloti uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirishlar. Bu yerda fermer xo'jaligi ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan, tomorqa xo'jaligiesa dehqonchilikka yo'naltirilgandir.

Germaniyaning quyi Bavariya, Shvab va Frankon pastliklari, yuqori va quyi Reyn tekisliklari esa dehqonchilik uchun eng qulay yerlar hisoblanadi. Donli va boshoqli ekinlar 60 %, kartoshka – 13 %, lavlagi – 3 %, sabzavot, poliz, bog'dorchilik va boshqalar -3 %, yem-xashak ekinlari 21 % ulushga to'g'ri keladi. Chorvachilik uchun ozuqa bazasini shakllantirishda dehqon xo'jaliklari yetakchi o'rnlarda turadi.

Quyidagi jadvalda biz Germaniyaning yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, bunda fermer va dehqon xo'jaliklari ulushini ko'rshimiz mumkin (2-jadval).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Germaniyaning tomorqa xo'jaligiasosan bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Shuningdek, qand lavlagi, meva, xmel yetishtirishda tomorqa xo'jaligoldingi o'rinda turadi. Yana bir ma'lumot, Germaniyaning ayrim hudud (provinsiya)larida parrandachilikka ixtisoslashgan dehqon xo'jaliklari borligi qayd etilgan.

2- jadval. Germaniyada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va bunda qishloq xo'jaligi korxonalarini ulushi (2012-2018 yillar)

№	Qishloq xo'jaligi mahsulotlariturlari	O'lchov birligi	Yillar			2018 y 2012 y ganis. (+,-)	q/x kor ulushi, %	d/x ulushi, %
			2012	2014	2018			
1	Don	Mln.ton	50,0	51,7	54,2	4,2	90-92	8-10
2	Bug'doy	Mln.ton	22,0	23,2	25,2	3,2	98	2
3	Makkajo'xori	Mln.ton	3,2	41,2	5,2	2,0	86	14
4	Arpa	Mln.ton	12,0	13,4	15,2	3,2	94	6
5	Suli	Mln.ton	1,2	1,8	3,0	1,8	94	6
6	Kartoshka	Mln.ton	13,0	14,8	17,8	4,8	70	30
7	Qand lavlagi	Mln.ton	27,9	29,2	32,6	4,7	65	35
8	Mevalar jumladanA) olma B) nok V) olchaC) uzum D) va boshqalar	Mln.ton	4,7	5,4	6,8	2,1	30-32	68-70
		Mln.ton	0,9	1,7	2,2	1,3	28-32	68-72
		Mln.ton	0,36	1,2	1,0	0,64	30-32	68-70
		Mln.ton	0,3	0,8	0,8	0,5	27-32	68-73
		Mln.ton	14,7	1,2	1,7	-13	24	76
		Mln.ton	1,44	0	1,1	-0,34		
9	Xmel	Ming tonna	3,0	35,0	39,0	36,0	1,2	98,8

Germaniyada 2012 yilda 180 mln bosh, 2016 yilda esa 183,5 mln bosh parranda hisobga olingan bo'lib, ularni parvarishlash uchun 520 ming tomorqa xo'jaligiyo'naltirilgan.

Dunyo hamjamiyatida muhim o'rinn egallovchi yana bir yirik davlat - Rossiya iqtisodi yuksak davlatlardan sanaladi. Rossiyada 2 ming gektargacha yerga ega

mulkdor fermer hisoblanadi, ammo uning negizida bir nechta kichik xo'jaliklar – dehqon xo'jaliklarini ham shakllantirish mumkin.

Rossiyada fermer va dehqon xo'jaliklarining birlgiligidagi harakati ko'proq kuzatiladi, chunki bunda agroxizmat, infratuzilmaga ega boshqa yirik korxona va tashkilotlar bilan mustaqil aloqa o'rnatilishi mumkin. Masalan, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida 2012 yil 7,2 mingta, 2018 yil esa 12,7 mingta tomorqa xo'jaligiro'yxatga olingan. Ularning ishlab chiqarishi haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (3- jadval).

3.jadval

Rossiyaning qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi

№	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari	O'lchov birligi	Yillar			2018y 2012 y ga nisb.	Dehqon xo'jaligi ulushi, %	Boshqa q/x korxona lari, %
			2012 y	2014 y	2018 y			
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	Bug'doy	Mln. t	85,2	87,3	90,5	106	-	100
2	Guruch	-/-	46,9	48,0	51,2	109	2	98
3	Makkajo'xori	-/-	2,0	2,8	3,2	160	30-35	65-70
4	Arpa	-/-	14,7	15,2	17,0	121	25-30	70-75
5	Suli	-/-	5,3	5,8	6,8	128	30-35	65-70
6	Kartoshka	-/-	35	48,2	40,2	115	40	60
7	Qand lavlagi	-/-	14,6	15,0	17,2	118	60	40
8	Sabzavotlar shundan:	-/-	11,4	12,3	14,8	130	85-88	12-15
	A) karam	-/-	4,2	5,2	7,0	166	81	19
	B) piyoz	-/-	1,1	2,0	3,2	291	75-78	22-25
	V) pomidor	-/-	1,8	2,8	3,9	216	82	18
	G) bodring	-/-	0,55	1,2	1,8	327	86	14
	D) sabzi	-/-	1,2	1,5	2,1	175	69-71	29-31
9	Mevalar shundan:A) olma B) olcha V) uzum G) boshqalar	-/-	2,5	2,5	2,8	112	78	22
		-/--	1,8	1,8	2,0	111	80	20
		/-	0,1	0,2	0,3	300	78	22
		-/-	0,2	0,2	0,3	150	68	32
		-/-	0,4	0,3	0,2	50	72-76	24-28
10	Qulupnay	-/-	128	130	131,8	103	100	0
11	Malina	-/-	95	98	101	105	100	0
12	Smorodina	-/-	208	210	212,2	102	100	0
13	Kungaboqar urug'i (pista)	-/-	3,2	3,8	4,1	128	85-86	14-15

Rossiyaning dehqon xo'jaliklari faqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashmaganligi diqqatga sazovordir. Masalan, Rossiya fuqarosi Aleksandr Anpilogov atirgul yetishtirishga ixtisoslashgan dehqon xo'jaligini tashkil etgan. Uning yeri 0,25 hektar bo'lib, atirgul yetishtirishga ko'p xarajat sarflanmasligi diqqatga

sazovordir. Atirgul tayoqchalariga 190 rubl sarflagan Aleksandr gullarni sotgach, 2500 rubldan 4000 rublgacha daromad olgan. (0,1 ga dan endi bu summani 2,5 ga ko'paytirsak, (0,25 hektar uchun) 6250 rubldan 10000 rublgacha ko'payadi). Shunday chet el tajribalaridan tomorqa xo'jaligiva tomorqa yer egalari ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lardi

Xulosa. Xorijiy davlatlarning shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini tashkil etish va yuritishdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik yer maydonlaridan oqilona foydalanish orqali nafaqat aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki daromad manbalarini kengaytirish va bandlikni oshirish mumkin.

Xitoy, Hindiston, Turkiya va boshqa davlatlar tajribasi tomorqa yerlarini innovatsion texnologiyalar, sug'orish tizimlari, agroxizmatlar va kooperatsiya orqali yuqori samaradorlik bilan boshqarish imkonini berayotganini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu ilg'or yondashuvlarni moslashtirish va joriy etish orqali tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish mumkin.

Buning uchun axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini oshirish va amaliy tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

8. O'zbekiston Respublikasining "Shaharsozlik kodeksi" 22.02.2021yil.
9. Xudoyberdiyev F. "Tabiiy resurslar kadastri". Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro 2019 yil.
10. Karimov E, Xudoyberdiyev F. "Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari". O'quv qo'llanma. Durdona nashriyoti. Buxoro 2019 yil.
11. Adizov Sh. "Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejalshtirish". Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro 2020 yil.
12. Xudoyberdiyev F. "Davlat kadastrlari asoslari". Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro 2020 yil.
13. Karimov E. "Landshaftshunoslik asoslari" Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro 2020 yil.
14. Mirzaabdullayeva M, Mukumov A, Hamidov F, Uzoqova G. "Yer huquqi" Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro 2020 yil.